

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM FAKULTETI

«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

Tabiat manzarasini yaratish texnika va texnologiyasi (moy bo'yoq) mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Kasb ta'limi (amaliy san'at)
ta'lim yonalishi bitiruvchisi
3-1ASK -15 guruh talabasi Ochilova Nodira

ILMIY RAXBAR:
dots. S.S. Abdullayev

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

sonli bayonnomasi " " 2019 yil

Buxoro- 2019 yil.

Mavzu: Tabiat manzarasini yaratish texnika va texnologiyasi (moy bo'yoq)

Reja:

Kirish.....6 bet

II. Asosiy qism

2.1. Manzara chizishning nazariy asoslari.....8 bet

2.2. Manzara chizish jarayonida perspektiva.....11 bet

2.3. Manzarada kompozitsiya.....14 bet

2.4. Manzara chizish jarayonida rang xususiyatlaridan foydalanish.....19 bet

2.5. Manzara chizish bo'yicha amaliy tavsiyalar.....22 bet

2.6. Ijodiy manzaralar chizish.....29 bet

2.7. Mashhur manzarachi rassomlar haqida ma'lumot.....35 bet

2.8. Tematik rasm chizishda kompozitsiya asoslari.....46 bet

2.9. Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.....49 bet

2.10. Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda interfaol usullarni qo'llash.....57 bet

2.11. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalar.....63 bet

2.12. Pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, va uni tashkil etish metodikasi..78 bet

III. Xulosa.....83 bet

IV Adabiyotlar ro'yxati.....84 bet

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida jahonning rivojlangan mamlakatlari kabi o'quv texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakatning iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o'zini axborot-texnologik rivojlanishning holatiga bogliq bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnika yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir bo'lajak o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid kasbiy layoqatligini shakllantirish va tarbiyalab borib, ularni pedagogik faoliyatda izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir.

An'anaviy o'qitish texnologiyasi asosan «o'qituvchi-o'quvchi» tarzida umumiy xarakterda bo'lib, unda o'quvchi ta'lim jarayonining ob'ekti, ya'ni passiv shaxs sifatida qaraladi. Pedagogik texnologiyada «O'qituvchi - ta'lim - o'quvchi» tizimiga asoslanadi va unda o'quvchi sub'ektga ya'ni, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunda o'quvchiga o'zi izlanishga, o'zi mushohada yuritishga sharoit yaratuvchi tashkilotchiga va uni nazorat etuvchi boshqaruvchiga aylanadi.

Tasviriy san'at fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish ya'ni uni takomillashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin:

- umumta'lim muassasalaridagi – o'qituvchilarning pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llashga uzluksiz ravishda tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimi mavjud emasligi;

- fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining bugungi darajasi bilan tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlash jarayoni orasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi;

- tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy layoqatlarini tarbiyalash jarayonini takomillashtirish borasida to'plangan ilgor tajribalarning amaliyotga etarlicha joriy etilmaganligi;

- tasviriy san'at o'qituvchilari uchun aynan pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalari tavsiya etilmaganligi mustaqil ta'limni tashkil etish imkonini beruvchi o'quv-metodik majmualarning etarlicha yaratilmaganligi.

Shu sababli, zamonaviy o'quv texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida tasviriy san'at darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tasviriy san'at darslarida o'qitishning interfaol usullarini qo'llash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Tasviriy san'at darslariga interfaol usullardan aqliy hujum, klaster, suhbat, bahs, munozara, boshqotirma, rolli o'yinlar pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati pedagogik texnologiyaning mazmuni hamda an'anaviy ta'lim mohiyatini o'rganish, tahlil etish asosida yuzaga keladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, an'anaviy ta'lim mazmunini asosan pedagog bu jarayondagi avtoritar mavqei, tasviriy san'at o'quvchilarining sust faoliyati asosiga qurilgan bo'lib, tasviriy san'at uchun ajratilgan vaqtning asosiy qismi pedagoglar tomonidan muhim nazariy ma'lumotlarni bayon etishga sarflanar, tasviriy san'at o'quvchilarining faolligini ta'minlashga zaruriyat sezilmasligini ifoda etardi.

Pedagog tasviriy san'at o'quvchilarining faolligini yuzaga keltirishga vaqt nuqtai nazardan ham imkon topa olmas edi.

Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusidan kelib chiqib, biz o'z oldimizdagi maqsad va vazifalarni quyidagicha belgilab oldik:

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Tabiat manzarasini yaratish texnika va texnologiyasi (moy bo'yoq) mavzusida manzara yaratish texnologiyasi va uni o'qitishda tasviriy san'at darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uni o'qitish usullarini mazmunini yoritish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Manzaraning nazariyasi va amaliy kartinani tasvirlash texnologiyasi uni tasviriy san'at darslarida samaradorli zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish jarayoni

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Manzaraning nazariyasi va amaliy kartinani tasvirlash texnologiyasi. Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirishda interfaol usullarni qo'llash

Tadqiqotning ilmiy farazi: agarda:

- tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda, interfaol usullarni tatbiq etish imkoniyatlari o'rganilsa;

- tasviriy san'at darslarida pedagogik texnologiyalarga tayanilgan holda amalga oshirilsa;

- tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda, interfaol usullarni tatbiq etishning nazariy va amaliy asoslari bilan qurollantirilsa;

- tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan ta'lim vositalarining mazmuniga pedagogik texnologiya elementlari singdirilsa, darslarni samaradorligi, shuningdek, o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalari darajasi ortadi.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Tabiat manzarasini yaratish texnika va texnologiyasi (moy bo'yoqda)
2. Tasviriy san'at darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uni o'qitish usullari bilan tanishtirish jarayonining hozirgi holatini o'rganish.
3. Tasviriy san'at darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uni o'qitish usullari bilan tanishtirishda interfaol metodlaridan foydalanishning mazmun va mohiyatini yoritish.
4. Tasviriy san'at darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish usullari, andozasi hamda ularning samaradorlik darajasini aniqlash

Bitiruv malakaviy ishning metodlari:

tadqiqot muammosiga oid mutaxassislik, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar mazmunini o'rganish, nazariy jihatdan tahlil etish; ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishda o'qituvchi mahoratining mavjud holatini o'rganish; pedagogik kuzatuv; suhbat; anketa so'rovi; pedagogik tajriba; matematik-statistik metod. Asarni yaratish texnika va texnologiyasi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi:

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'grisida»gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan

qabul qilingan qarorlar, O'zbekiston Respublikasining "Tabiat muhofazasi va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish to'grisida" gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining qonun talablarining bajarilishi to'grisidagi qarorlari, me'yoriy hujjatlar.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi:

1. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda, pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslandi.

2. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda, pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish etishning mavjud ahvoli va pedagogik shart-sharoitlarini o'rganildi.

3. Tasviriy san'at darslari o'quv hamda tarbiya faoliyatini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning mazmuni va yo'llari aniqlandi.

4. Tasviriy san'at darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish usullari, andozasi hamda ularning samaradorlik darajasi belgilab berildi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism 2.12 paragraflar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH

Ta'lim sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ta'limni yanada rivojlantirish, uning darajasini zamonaviy bosqichga ko'tarishdan iborat. Bu borada tasviriy san'atning o'рни ham benihoyat kattadir. Zero, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda estetik didni shakllantirish bevosita tasviriy san'at ta'limining ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Tasviriy san'at asarlari kishilarning his-tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Ayniqsa, manzara asarlarini tomosha qilish bilan insonlar, unda tasvir etilgan go'zallikni ko'rib, qalblariga go'zallik kirib boradi, tabiatga mehr-muhabbati ortadi. Tasviriy san'atning manzara janri asarlarida ona-yurtning go'zal va betakror, ulug'vor hamda epik obrazi gavdalanadi. Manzara asarlari inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ma'naviy ozuqa berish bilan birga, ona-yurtning moddiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatadi, ularni avlodlarga bekamu-ko'st etkazish zarurligi g'oyasini singdirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda manzara asarlarining ahamiyati kattadir. Manzarada perspektiva, kompozitsiya, rang, ritm, koloritning o'рни va ahamiyati haqida so'z boradi. Ushbu mavzuning ikkinchi qismida esa manzara chizish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi, ya'ni ochiq havoda manzara chizishning xususiyatlari, ijodiy manzaralar chizish va shuningdek, mashhur manzarachi rassomlar haqida ma'lumotlar berildi, hamda manzaraga oid tayanch iboralar ham ilova qilindi.

Manzara janri ko'proq rang tasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi.

Bu janrda turli davrda turli elat va millat vakllari ijod qilitshgan. Ularning asarlarini kuzatar ekanmiz bir-biridan mutlaqo mazmuni, kayfiyati va ranglari bilan saqlanishi ko'zingizga tashlanadi. Masalan, qadimgi Misrda rangtasvir keng tarqalganligiga qaramasdan manzara mavzuli asarlarning foni vazifasini bajargan. Bunda manzara goh Nil daryosi qirgoklariga aylanib qamishlar orasida yurayotgan xayvonot yoki qushlar olamini goh o'rta er dengizini suvlarini mavjlantirayotgan shamol katta kema yelkanlarni to'ldirganligini goh esa issiq sahro uzra vaxoga yaqinlashib qolgan savdogarlar karvonini real borliq bilan to'ldiradi. Juda yorqin bo'yoqlarda bajarilgan bu san'at asarlarida tabiat manzarasi ikkinchi ya'ni to'ldiruvchi vazifasini bajarsada usiz tasvirlangan mavzu To'la yechilmaydi. Endi qqadimgi davr manzaralari bilan tanishishni davom ettirsak, xuddi shunday manzaralarni ona O'zbekiston diyorini eng qadim davrdan Islomga qadar 8- asr mavjud bo'lgan rangtasviri misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib Surxandaryodagi Fayoz – tepa, Samarqanddagi Afrosiyob va Panjkentdagi Buxoroning Varaxsha qasrlaridan topilgan juda ko'plab devoriy rasmlarda mahalliy dostonchilik bilan bog'liq va Saroy hayotini turli tomonlarini ochib beruvchi, ov bazm va boshqalarda mavzu bilan bog'liq tabiatdan kuzatilgan manzaralarni ko'rsatish mumkin.

Manzara o'rta asrlarda G'arbda ham Sharqda keng rivojlangan qulyozma kitobalarini bezovchi miniatyura san'atida xam juda ko'plab uchraydi. Xususan Amir Temur va sulton Ulug'bek davrida Samarqandda Shoxruxmirzo davrida Xirotda Abu-Said-Mirzo davrida Isfoxonda ularning qasrlari yirik rasmlar bilan bezalganligi haqida qo'lyozma adabiyotlarda ko'plab uchraydi. Ularni mavzulari turfa bo'lib shoxlarning taxtga o'tirganligi, qasrdagi qabul va bazmi jamshid saxnalari harbiy yurish va jang manzaralari ov va ko'ngilxushlik manzaralari tasvirlangan. Afsuski keyingi davr ixtiloflari natijasida ular yo'q qilinib yuborilgan.

2.1. Manzara chizishning nazariy asoslari.

Barcha san'at turlarida bo'lgani kabi tasviriy san'at ham, (rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik) o'z ichida har xil janrlarga ajraladi. Janrlarga ajratish rangtasvirda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Tasviriy san'at asarlarini janrlarga ajratishda, odatda, rasmda nima tasvirlanganligi asos qilib olinadi. Shunga ko'ra, rangtasvir asarlarini peyzaj (tabiatni tasvirlash), natyurmort (narsa-buyumlar tasviri), portret (inson tasviri), syujetli-mavzuli kartina (hayotiy voqealarni tasvirlash) kabi janrlarga ajratish mumkin. Tasviriy san'atning qalamtasvir (grafika) turi ham shu tarzda janrlarga ajratiladi. "Peyzaj" fransuzcha so'z bo'lib "tabiat" degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atda tabiatni real yoki xayoliy ko'rinishlarini aks ettirishga bag'ishlangan asar peyzaj yoki manzara deyiladi. Manzara qalamtasvir yoki haykaltaroshlikda ham yaratilishi mumkin. Biroq, manzara janrining imkoniyatlari rangtasvir san'atida har tomonlama, to'laligicha o'z ifodasini topadi. Manzara janrining paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq davlatlari hududida va Krit orollarida olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan buyumlar misolida ko'rish mumkin. Tabiat manzaralarini aks ettirish Xitoy rassomlik san'atida VI asrda paydo bo'lgan. Evropa san'atida manzara janri mustaqil janr sifatida XVII asrdan boshlab rivojlandi. U, ayniqsa, golland rangtasvir san'atida keng tarqaldi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, to XVII asrgacha tabiat manzarasi ko'rinishlari faqat mavzuli surat yoki portretlar uchun fon vazifasini o'tagan. Manzara janri mustaqil janr sifatida shakllangan bo'lsa-da, unda ba'zan inson obrazini ham uchratish mumkin. Biroq, manzara kompozitsiyasida inson tasviri, shuningdek, kichik voqeaviy sahnalar hal qiluvchi rol o'ynamaydi, balki manzarani to'ldirish, tasvirning jonli chiqishi uchun xizmat qiladi. Kamil Koroning "Pichan tashish", A. Plastovning "Birinchi qor", O'. Tansiqboevning "Issiqko'l oqshomi" kartinalarida shu holni kuzatish mumkin. Tasviriy san'at asarlarida, jumladan, manzara janrida yaratilgan asarlarda rassomning borliqdan olgan taassurotlari, voqealikka g'oyaviy-hissiy munosabati ham aks etadi. Tabiat manzaralari tasvirida rassomning dunyoqarashi, tabiatni idrok etishining ijtimoiy-tarixiy, milliy va uslubiy xususiyatlari o'z ifodasini topadi. Shunga ko'ra, mashhur rassomlarning asarlarida manzara motivlarining ulug'vor-romantik Shishkinning "O'rmon uzoqliklari" kartinasi), lirik (A. Savrasovning "Qora qarg'alar uchib keldi" kartinasi) yoki ijtimoiy-falsafiy (I. Levitanning "Mangu uyquda" kartinalari) talqinlarini uchratish mumkin. Peyzaj janri o'zining ichki bo'linishi – janr ko'rinishlariga ham ega bo'lib, bular qishloq manzarasi, shahar manzarasi, industrial peyzaj va peyzaj-marina ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

Rangtasvir xaqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o'rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, xajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq xolda xar-bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, xajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lishi lozim, aks xolda turli bo'yoqlar xam oddiygina narsa va buyumning qurilishi, xajmini savodli ifodalab bermaydi. Xavo perspektivasiga bog'liq xolda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rangbarang surtmalar xam, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada xam jozibali ko'rsatadi.


Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'rni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi; «Bu 100 % qalamtasvir va 100 % rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir» Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom, qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jixatdan ijodkorga bog'liq.

2.2. Manzara chizish jarayonida perspektiva

Manzara ishlash texnikasini egallash bo'lajak rassomdan juda katta qunt va mehnatni talab qiladi. Kuzatuvchidan tabiat manzaralarini katta masofa ajratib turishi, yorug'lik va soya

reflekslarining xilma-xilligi va ko'pligi, yorug'-soyalarining tez o'zgaruvchanligi, ob-havo va fasllarning o'zgarishi – bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo'lgan rassom mehnatini qiyinlashtiradi. Shuningdek, qiziqarli motivlarni paydo bo'lishiga olib keladi ham. “Perspektiva” so'zi lotinchada “aniq ko'raman” ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda perspektiva qisqarish hamda narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari o'zgarib borishi ma'nosida ishlatiladi. Perspektiva rassomga manzarani naturada qanday ko'rilsa, kartinada shunga mos tasvirlash imkonini beradi. Perspektiva qoidalarini o'zlashtirish manzara chizish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Peyzaj asarlarining muvaffaqiyati ularda tasvirlangan predmetlarning o'zaro uyg'un o'lchovlarda aks ettirilishiga ham bog'liq, albatta. Buning uchun bo'lajak rassom naturani diqqat bilan kuzatishi, narsa va buyumlar, jonivor-larning bir-birlariga nisbatan o'lchovlarini, ularning ufq chizig'iga nisbatan joylashishi kabi jihatlarini tasvirlash bilan ularda manzara chizish malakasi shakllanib boradi. Perspektiva ufq chizig'i bilan bog'liq holda belgilanadi. Ufq chizig'i deyilganda osmon bilan erni ajratib turadigan chiziq tushuniladi. Ufq chizig'i rassomlikda kuzatuvchining yoki rasm chizuvchining ko'zi balandligida tasavvur etiladigan epic (gorizontal) suvrat tekisligiga yondosh (parallel) chiziqdir. Ufq chizig'i odatda tasvirlanadigan manzaraning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Ufq chizig'ini qog'oz betiga uch xil: qog'oz betining yuqorisidan, o'rtasidan, pastidan o'tkazish mumkin. Bu, asosan, kuzatuvchi egallab turgan ko'rish nuqtasiga bog'liq bo'ladi. Perspektivaning chizikli perspektiva, rang perspektivasi va hajm perspektivasi ko'rinishlari mavjud.

Chizikli perspektivaning muhim tomoni shundaki, u narsa va buyumlarning kuzatuvchiga nisbatan o'z shakli va o'lchovlarini o'zgartirib bori-shini ifodalaydi. Narsalar kuzatuvchidan uzoqlashib borgan sari ularning o'lchovlari kichrayib boradi. Aksincha, kuzatuvchiga yaqin-lashgan sari narsalarning o'lchovlari ham kattaroq ko'rinadi. Perspektiv qisqarishni qog'ozda tasvirlashda quyidagi qoidaga amal qilinadi. Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin turgan manzara qog'oz betining pastki qismida tasvirlanadi va aksincha, kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko'rinadigan narsalar qog'oz betining yuqori qismiga joylashtiriladi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda ham, yaqinda ham joylashmagan ob'ektlar qog'oz betining o'rtasida tasvirlanadi (1- rasm). Perspektiv qisqarishni qog'ozda aks ettirish ko'rish nuqtasiga nisbatan olinadi. Ko'rish nuqtasidan xayolan chiqarilgan chiziqlar manzaraning yuqorisi va pastki qismidan o'tkaziladi (2-rasm). Manzaradagi boshqa predmetlarning perspektiv qisqarishini belgilashda ko'rish chizig'ini o'zgartirmaslik talab qilinadi. Xuddi shu usulda har qanday narsalarning rasmini perspektiv qisqarish qoidasiga ko'ra ishlash mumkin. Perspektiv qisqarish usulida narsalarning o'lchovlarini haqiqatga yaqin va to'g'ri aks ettirish mumkin bo'ladi. Manzara chizish jarayonida yorug'-soyalar va ranglar munosabatini kuzatish, har bir ko'rinishning xususiyatlarini idrok etish bilan chegaralanib qolmay, naturani yaxlit holda ko'ra olish malakasini ham shakllantirish zarur. Manzara rangtas-virida bir vaqtning o'zida barcha manzarani ko'ra olish, oldingi, o'rta va orqa planni yaxlit ko'rish maydoni sifatida idrok etish zarur bo'ladi. Manzaradagi turli holatda joylashgan manzarani alohida emas, yaxlit birlikda, bir-biriga bog'langan bitta asar sifatida idrok etish muhimdir. Rassom rang perspektivasi xususiyatlarini ham puxta o'zlashtirishi talab etiladi. Rang perspektivasi deganda borliqdagi barcha narsalar kishi ko'zidan uzoqlashib borgan sari o'z rangini o'zgartirishi tushuniladi. Bizdan uzoqlashgan sari narsalar havoga “singib” borayotgandek ko'rinadi. Agar predmet aniq belgilari bilan tasvirlansa, u bizga yaqin turgandek taassurot tug'iladi. Predmet belgi-xususiyatlarining xirala-shishi esa uni bizdan uzoqlashtiradi. Oldingi planda joylashgan narsalardagi yorug'-soyalarining keskinligi kuzatiladi. Tuman, chang yoki tutun bilan qoplangan joydagi narsalar ko'rinishi xiralashadi. Uzoqlashgan sari narsalarning rangi havorangga moyillashib boradi, ularning rangidagi farqlar kamayib boradi. Shuningdek, manzara ishlash jarayonida hajmlilik yoki yorug'lik perspektivasini ham e'tiborga olish zarur. Narsalar yorug'lik manbaidan uzoqlashgan sari o'zining yorqinligi, rangi, shakli aniqligini yo'qota boradi. Barcha narsalar bizdan uzoqlashgan sari yoki unga nur yorug'lik tushgan sari shakl va rang aniqlashib, manzaraning xajmli ko'rinishi aniqlashadi. Yorug'lik perspektivasi, ayniqsa, oqshom manzarasi tasvirlangan karti-nalarda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, U. Tansiqboevning “Tog' qishlog'i” kartinasi manzaralarning barchasi quyosh-ning kechki nurlariga chulg'angan holda, ko'kish rangda tasvirlangan va shakldagi aniqlik real rang yo'qolib borgan. Shu bois talabalar mustaqil ishlar bajarish jarayonida perspektiva qoidalariga amal qilish bilan birga tasviriy san'at asarlarini kuzatishi hamda o'zi chizgan suratlarni tahlil qilib borishi yaxshi samara beradi.




1-rasm Manzarada perspektiva

2.3. Manzarada kompozistiya

“Kompozistiya” soʻzi lotincha *compositio* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, qismlarni maʼlum bir tartibda joylashtirish degan maʼnoni anglatadi. Tasviriy sanʼat asaridagi kompozistiya kartinada tasvirlangan barcha elementlarning rassom gʻoyasiga muvofiq joylashtirilishini bildiradi. Tomoshabin eʼtiborini jalb qilish va uni hayajonga solish uchun rassom tasvirlashning kuchli ifoda vositalarini izlab topishga harakat qiladi. Oʻz maqsadini ifodalashda barcha ortiqcha narsalarni chiqarib tash-laydi, ikkinchi darajali narsalar asosiga boʻysundiriladi. Mato sirti, oʻlchami koʻzlangan maqsad yoki koʻrish nuqtasi, ufq chizigʻini belgilash, rang berish, kompozistiya markazini belgilash - bularning barchasi kompozistiyaning elementlari sifatida xizmat qiladi. Manzara asarining mazmuni, tanlangan motivning hayotiy-ligi kartinaning kompozistion qurilishi bilan yuzaga chiqadi. Manzara motivlarini tanlash, kompozistion uygʻunlikni topa bilish har bir rassomning oʻziga xos ijodiy did va mayliga bogʻliq boʻladi. Manzara etyudlarini ishlash bilan avvalo kom-pozistiyaning dastlabki detallari - oldingi, oʻrta va orqa planni tanlashdan boshlanadi. Bunda koʻrish nuqtasini, qogʻoz yoki mato oʻlchamini belgilab olish muhimdir. Manzara etyudi kompozi-stiyasida osmon, er va boshqa koʻrinishlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni topishga ham eʼtibor berish kerak. Tasvirlanayotgan obrazning taʼsirchanligi tanlab olingan naturaning qiziqarli tomoni bilan ham belgilanadi. Shuning uchun rassom naturaning eng taʼsirli jihatlarini topa bilishi, buning uchun naturani har xil holatlarda, kunning turli vaqtlarida diqqat bilan kuzatishi kerak. Zarur ufq chizigʻini belgilash, oʻng va chapdan, yaqin va uzoqdan qarab, shunday bir nuqtai nazarni - koʻrish nuqtasini topish kerakki, toki natura oʻzining ifodaviyligi bilan rassom niyatini optimal darajada amalga oshirish uchun xizmat qilsin. Kartinada barcha narsa rassomning istagini, gʻoyasini ifodalashga boʻysundiriladi. Kompozistiyaning mukammalligi asosiy manzara koʻrinishlarning ikkinchi darajalilaridan farqlay olishda koʻrinadi. Har bir detal oʻz oʻrni va mazmuniy vazifasiga ega. Kompozistiyadagi ikkinchi darajali, uncha muhim boʻlmagan

narsalar darhol ko'zga tashlanmasligi, asosiy ko'rinishga alohida urg'u berilishi kerak. Asosiy manzara kartinada alohida diqqat va e'tibor bilan ifodalanishi zarur. Biz atrofni kuzatganimizda ko'p hollarda bitta muhim deb hisoblagan narsamizga diqqat bilan qaraymiz. U bizning ko'rish maydonimizdagi markazga joylashgan bo'ladi, uning mayda-chuyda belgilarigacha e'tiborimizdan chetda qolmaydi. Ko'rish markazidan chetda turgan boshqa narsalar esa umumiy tarzda, yaxlit holda qabul qilinadi. Karti-naning kompozition qurilishi ko'p jihatdan insonning ko'rish sezgisidagi ana shu o'ziga xoslikka asoslanadi. Rassom kartinada asosiy manzarani rang, tus, shaklining aniqligi bilan ajratib ko'rsatishi lozim. Kartinada muvozanatni saqlash uchun rassom naturani kuzatish jarayonida zarur rakursni belgilab olishi kerak. Aks holda tasvir huddi bir tarafga og'ib ketayotgandek, kartinaning bir tomoni bo'sh qolgandek taassurot berishi mumkin. Muvoza-natni saqlash tasvirlanayotgan manzara ko'rinishlarining miqdori va qanday joylashganligi bilangina emas, balki ularning rang-tusi bilan ham bog'liq. Kartinaning bir tomonidagi yorqin rang-larni ikkinchi tomonida ham ma'lum bir xolatda qo'llash kerak yoki kartinaning bir tomoniga alohida e'tibor berib, boshqa tomonini biroz nazardar qoldirish yaramaydi.

Tabiat materiallarining rasmini chizish.



-2-rasm

Bahor faslida erta amalga kiradigan daraxtlar va o'simliklar, ularning shoxchalari.

O'quvchilar kompozitsiya tuzish vaqtida bu elementlardan foydalanib rasm chizadilar. O'quvchilar aktivligini oshirishda o'qituvchini qo'lda tayyorlagan ko'rgazma materiali g'oyat yaxshi samara beradi.

Narsani o'ziga qarab rasm chizishdan ko'proq o'quvchilarga tanish, biladigan narsalardan tanlanadi, ular haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Umuman darsda o'quvchilar aktivligini oshirishning juda ko'p vositalari va usullari mavjudki, buni o'qituvchining o'zi tashabbusi bilan har bir darsda yangi-yangi materiallar topish, yangidan-yangi uslublarni qo'llashi va darsga juda puxta tayyorlanishi jarayonida yuzaga keladi. Yana o'qituvchini o'z fani bo'yicha uni o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, mehnatsevar, o'ziga va o'quvchilarga talabchan bo'lishi kabilardan ham o'quvchilar aktivligi namoyon bo'ladi. Bu o'rinda yana shuni aytish joizki, mashg'ulotlar jarayonida har bir yutuqni rivojlantirishi, o'quvchilarni kayfiyatini ko'taruvchi har bir omildan ustalik bilan foydalanishi, darsda texnika vositalaridan ham foydalanishi lozimki, bularning hammasi o'quvchilar aktivligini oshiradi, ularni ijodiy ishlashga undaydi.

Tabiat o'zining daraxtlari, rang-barang o'simliklari, qush va hayvonlar olami, tog', adir, daryolari bilan o'ziga xos go'zalliklar dunyosini bunyod etadi. Inson esa ularni o'z mehnati, ilmu-san'ati bilan yanada ko'rkam, yanada chiroyli bo'lishiga harakat qiladi. Tabiat va uning go'zalligi, tabiatga yanada go'zallik ato etuvchilar ularning meqqati qaqida shoirlar, rassomlar, kompozitorlar o'z asarlarini yaratdilar. Shu boisdan rassom bo'lishni orzu qilgan, bu yo'lda ijod qiladigan har bir rassom ham tabiat rasmini chizishni aslo kanda qilmaydi. Shu boisdan ham rasm chizishni o'rganishga kirishayotgan kishi tabiat materiallarini rasmini chizishni yaxshi o'rganib olishi lozim. Chunki, tabiat rassom uchun tasvirlashning asosiy manbasi bo'ladi. Undao'simliklar, daraxtlar, tog'-tosh, dara, qoyalar, boqu-roqlar, uy-hovlilar, paxta, bug'doy, o'rmon, daryo, ko'l va havzalar rasmini chizish mashqlari tabiat manzaralari rasmini chizishning dastlabki qadamlari bo'ladi. Shu boisdan qo'llanmada tabiatning qator elementlarini tasvirini yaratish bo'yicha mashqlarga nazariy va amaliy yo'llanmalar beriladi. Tasvirlash san'atning hamma turlari uchun qo'llaniladigan o'quv-texnik qurollar: qog'oz, qalam, o'chirg'ich-rezina, akvarel, guash, flomaster, pastel, tush, ko'mir tayoqchasi, bo'r, kist-bo'yoq, mo'yqalami, loy va plastilinlar, plakat va xarf yozish perolari, sharikli, avtomat va oddiy yozuv ruchkalaridan iborat bo'ladi. Bulardan tashqari, bo'yoqlarni eritish va qo'shish uchun suv (stakan yoki bankada tayyorlanadi), politra (qalin, karton qog'ozlardan yoki nafis taxtalardan tayyorlanadi), plakat

perolarni tozalab turish uchun bint-lattalar bo`lishi lozim. Tasvirlash va bezatish san`ati uchun ishlatiladigan yuqoridagi o`quv-texnik qurollarga alohida talablar qo`yiladi. Qog`ozlar turli xil o`simlik va daraxtlarning massalari va tsellyulozasidan tayyorlanadi. Qog`ozning ishlatilishiga qarab turli xil qo`shimcha to`ldirgichlar va ximiyaviy ishlanmalar beriladi. Qog`ozlarga oq tus beradigan, silliq, zichlik qolatini ta`minlaydigan qator ishlovlar berilib, asosan yozish-chizish uchun eng yaxshi navlari tayyorlanadi. Tasviriy san`at, Manzara, maishiy, naturmort, portret, tarixiy animal (Ya`ni hayvonot olamiga oid.) afsonaviy, dengiznafislik, interyer janrlari bor. Janr rassom nimani tasvirlayotganiga qarab belgilanadi. Masalan asarlarda odam rasmi ishlansa, u portret tabiat va shahar ko`rinishlari tasvirlansa, "Manzara" turmush va mehnat jarayonlari tasvirlansa, Maishiy janrga xos bo`ladi. Shu o`rinda maishiy janrda asarlar kishilarning maishiy turmush tarsi, mehnat, kundalik hayoti bilan bog`liq bo`lib ularda ko`proq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks etiriladi. Maishiy janrlardagi asarlar nafaqat hozirgi kun odamlarning balki, o`tmish kishilarning turmush tarsi va hayoti haqida ham keng ma`lumot beradi.

Uning janrlardan biri maishiy janr haqida tushunchaga ega bo`lamiz. Har bir janr o`z o`rniga yana bir qancha janrlarga bo`lishimiz mumkin. Masalan: Manzara janri: Tabiat manzarasi, shahar manzarasi, sanoat binolari ko`rinishi janriga bo`linadi. Tasviriy san`atda maishiy janrida kartina bajarish texnologiyasi Tabiat o`zining boy rangi va poyonsiz tulari bilan bizni lol qoldiradi. Avval qog`ozga rasm kompanovka qilinadi va uni ishlash bosqichlari rangda amalgam oshiriladi. Bundan tashqari guash, moybo`yoq, akvarel va qalamda kompazitsiyani ishlash mumkin. Kompazitsiya avvalo ma`lum bir mavzuni ishlash jarayonida yuzaga keladi. Odamning har bir harakati alohida ahamiyatga ega. Masalan; tabiatni asrang mavzusidagi kompazitsiya mavzusida bir qancha elementlarga e`tibor beriladi. Avval och ranglarda yengil rangda so`ng esa to`q rang bilan chiziladi. Rangtasvir mashg`ulotlarni boshlashdan avval quyidagi asbo uskunalarini tayyorlab olish kerak. Bo`yoqlarni aralashtirishda palitradan foydalanish qulaydir. U har xil materialdan yasalgan bo`lishi mumkin. Shuningdek, plastic likopcha va oq qalin qog`ozdan foydalanish ham mumkin. Xullas maishiy janrda ishlash jarayoning o`z qonuniyatlari mavjud bo`lib bu ishni tartib bilan olib boorish talab etiladi. Ketma-ketlik tartibini anglagan holda bajarilgan ish mahsuli muhim ahamiyatga egadir. Ishni nimadan boshlab uning o`rtasida qanday talablarga javob berish va qay o`rinda tugallash kerakligini yaxshi bilmoq zarur.

2.4. Manzara chizish jarayonida rang xususiyatlaridan foydalanish

Rangtasvirning eng asosiy ifoda vositasi - bu rang. Ranglar rangtasvir asariga tasviriy san`atning boshqa turlariga qiyoslaganda alohida hayotiylik bag`ishlaydi, tasvirning to`laligi va ishonchliligini ta`minlaydi. Rassomning g`oyaviy maqsadi hamda tasvir jarayonidagi kayfiyatiga muvofiq ravishda manza-rada ranglar yorqinlashishi, nur va havo etakchilik qilishi, bu orqali tasvir jarayonida rassom ruhiy holatidagi ko`tarinkilik, hayotsevarlik va kelajakka ishonch tuyg`ulariga ishora qilinishi mumkin. Yoki aksincha, sovuq ranglar orqali tushkun kayfiyat, bezovtalik kabilar ifodalangan bo`ladi. Rangning asosiy xusu-siyatlari uning yorqinligi (och-to`qligi) tusi va to`yinganligi bilan belgilanadi. Rang borasida gap ketganda bir narsani unutmash kerak - soyalar ham rangli bo`ladi. Bunda rassom bir rangning nur va soya hisobiga tuslanishini ko`ra olishi va shunga muvofiq aks ettira bilishi kerak bo`ladi (valyor rangtasviri). Shuningdek, manzarada reflekslardan foydalanish - tasvirlanayotgan predmetning boshqa buyumlarning yorug`ligi yoki rangi ta`sirida o`zgarishini to`g`ri belgilash va aks ettirish ham muhimdir. Bu esa manzaraning rangdorligini ta`minlaydi. Manzara rantasvirida har bir rang surtmasiga alohida e`tibor qaratish zarur. Manzarani professional darajada maho-rat bilan ishlash undagi ranglar munosabatini real xolatini naturada ko`rilganidek tasvirlay olish bilan belgilanadi. Manzara ishlash jarayonida ranglarning o`zaro munosabatini his qilish va aks ettirish malakasini hosil qilish uchun manzara ko`rinishlarining yorug`-soya ta`siridagi o`zgarishlarini zaruriy plandagi ko`rinishlarda kuzatish, o`zaro qiyoslash yaxshi samara beradi. Naturadagi manzaralarning ko`rinishi ularning yoritilish darajasi va boshqa manzaraning soyalari ta`sirida ham o`zgaradi. Tongda natura sariq-oltin rangida ko`rinadi, oy nurida kulrang- moviy rangga, bulutli kunda esa to`qroq kumush rangiga kiradi. O`rmonda hamma narsa iliq yashil rangga moyil bo`ladi. Manzara chizish jarayonida rangtasvirning plastik vosi- talaridan ham foydalaniladi. Buning uchun naturadagi ranglar dinamikasini diqqat bilan kuzatish zarur. Shundagina yorug` va soya dog`larining kartina bo`ylab tarqalishidagi tabiiylikka, asarning jonli va ta`sirli chiqishiga erishish mumkin bo`ladi. Umuman, tasviriy san`at asarini idrok qilishdagi o`ziga xoslikdan

kelib chiqilsa, tasviriy san'at asari, eng avvalo, alohida qismlari orqali emas, balki bir butunicha idrok etiladi, shundan so'ng sekin-asta kartinadagi qismlarga, detallarga e'tibor qaratiladi. Shunga ko'ra, rangtasvir asarida birinchi navbatda ko'zga tashlanadigan, tomoshabin diqqatini jalb qiladigan jihat rang undagi koloritidir. Kolorit manzara chizish jarayonidagi rassom e'tibor qaratishi lozim bo'lgan eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Kolorit deganda tasviriy san'at asaridagi ranglarning o'zaro uyg'unligi va birligi tushuniladi. Kolorit rangtasvirdagi badiiy obrazning emostional ifodaviylikini ta'minlaydigan muhim vositalaridan biri bo'lib, ranglarning o'zaro uyg'unligiga ko'ra u iliq yoki sovuq, yorug' yoki xira bo'lishi, shuningdek, xotirjamlik yoki bezovtalikni ifodalashi mumkin. Manzara chizish jarayonida ko'pincha va ayniqsa boshlovchi rassomlarga predmetning rangi haqida ilgaridan shakllanib qolgan tasavvurlar halaqit berishi mumkin. Predmet qanday yorug'lik muhitida joylashganiga qaramay, uning rangi haqida ilgaridan shakllangan tushuncha xotirada saqlanib turaveradi. Natijada tajribasizroq rassomlar etyud ishlash jarayonida jiddiy xatoga yo'l qo'yadilar manzara ko'rinishini ilgaridan shakllangan tasavvurlariga ko'ra tasvirlaydilar. Masalan, maysa-larning rangi kuzatuvchidan uzoqlashishi, shunga muvofiq ravishda muhitning o'zgarishiga o'zgarishini hisobga olmasdan birdek yashil rangda tasvirlayveradilar. Manzara chizishdagi muhim jihatlardan yana biri kartinada ob- havoni, faslni, kunning turli vaqtlardagi holatlarini tasvirlay olishdir. Bu narsa kartinada umumiy tus va rang kayfiyatini bera olish deyiladi. Tabiatning tez o'zgaruvchan holatlari – erta tong, peshin, kech, nam havo, quruq havo, bulutli kun, quyoshli kun va boshqalar o'ziga xos rang gammasini talab qiladi. Kunning turli vaqtlarida va turlicha ob-havo sharoitida ishlangan etyudlar bunday paylarda tabiatning yoritilish holatidagi o'zgarishlarga muvofiq tarzda o'zining umumiy tusi va rangiga ko'ra farqlanadi. Tabiatning turlicha yoritilganlik holatlaridagi farqlarni o'rganish uchun bitta naturaning o'zini bulutli tunda ob-havoda, quyoshli kunda, yozda va qishdagi ko'rinishlarini kuzatish, tasvir-lash foydalidir. Manzarada umumiy tus va rangdagi uyg'unlik, yaxlitlik yo'qligi bir necha xil rang-tus xolatlarini bzaga keltiradi. Bunday asar tabiat go'zalligini ifodalay olmaganidek tomoshabin tuyg'ulariga ham ta'sir eta olmaydi.



1-bosqich



2-bosqich

3-bosqich

4-bosqich



2.5. Manzara chizish bo'yicha amaliy tavsiyalar.

Ochiq havoda manzara chizishning xususiyatlari

Ochiq havoda rasm chizishning boshlanishida oddiyroq syujetni tanlagan ma'qulroq. Masalan, hovlining bir qismi, uy yonidagi yoki devor oldidagi daraxt, ko'priqli ariqcha, xarakterliroq ko'chani bir qismi, darvoza oldi va hokazo. Ochiq havoda etyud ishlash bo'yicha bir mo'ljal malaka hosil qilgach, so'ng vazifasini sekin-asta murakkablashtirib borish mumkin. Odatda manzara ishlashning ikki xil tipi mavjud: Birinchisi; davomli, ya'ni tugatilgan manzara. Ikkinchisi; qisqa muddatli bir seansli etyudlar. Uzoq muddatli manzaralar ishlashda fazoni ishonchli tasvirlash ob-havoni holati, yorug'likning nozik qochirimlari va manzara ko'rinishining shakli-shamoyili ancha aniqlikda ishlanadi. Uzoq muddatli davomli etyudlarda naturaning to'liq ifodalash qobiliyati va dastlabki fikrni to'la-to'kis rangtasvir asariga aylantira olish tarbiyalanadi. Uzoq muddatli ishlarni bir necha seansda kunning (bir payti) o'sha vaqtida havoning bir xil holatida yozish chizish kerak. Yaxlitlikni rivojlantirish va rangtasvirni quruq va kambag'al bo'lib qolishdan qutulish uchun davomli tasvirlardan tashqari qisqa muddatli etyudlar bajarish zarur bo'ladi. Bu etyudlar manzarachi uchun o'ta zaruriy bosqich bo'lib, rassomning o'ziga xos kundalik daftaridir. Etyuddagi eng ahamiyatli narsa bu natura haqida jonli nigoh va jonli tasavvurdir. Ochiq havoda ishlanar ekan, tabiatning tez o'zgaruvchanligini kuzatish mumkin: bo'ronli bulut va momaqaldiroq, quyoshning chiqishi, bulutlarning hayratli almashinishlari va rangdor yoritilishini kuzatish mumkin. Bunday o'zgarishlar 5-10 minut ichidayoq sodir bo'ladi: kun botish butunlay boshqa rangga kiradi, bulutlarni ham shakli buzilib ketadi. Bunday paytda juda tez ishlash talab etiladi, boshlang'ich chizmatasvirni to'liq bajarish ham shart emas yoki umumiy holda kist bilan belgilab olish kifoya qiladi. So'ngra tezda zaruriy tusdagi buyoqlarni tanlab yirik mazeklar bilan ishlash kerak. Qisqa vaqt ichida umumiy rang tusining holatini hosil qilish ranglar garmoniyasini, planli bog'lanishlarni yuzaga chiqarish zarur bo'ladi. Bu erda albatta yaxlit ko'rish zarur va asosiy ob'ektlarni taqqoslash matoda asosiy rang munosabatlarni joylashtirib olish: osmon, er, daraxtlar, suv va hokazo. Agar, umumiy tus ishonchli olinsa, yorug'lik kuchi, rang va uning to'qligi (to'yin-ganligi) naturaviy nisbatlarga mos bo'lsa, har xil planlarni munosabati to'g'ri ilg'ab olingan bo'lsa shularni o'zi etyud-qoralama uchun etarlidir. Yaxlit ko'rishni bilish va katta shakl nisbatlarini topa olish ko'nikmasi kelajakda manzara ishlash mahoratini egallash uchu poydevor bo'lib xizmat qiladi. Davomli etyud ishlash jarayoni haqida to'xtalib o'tamiz. Manzara ko'rinishini tanlab olingach, tasvir yuzasida tayyor-garlik chizmalari ishlanadi. Chizmatasvir albatta, shubhasiz, perspektiv qurilish va turli manzara ko'rinishlarini planli va nisbatlarini saqlagan holda chiziladi. Manzaraning chiziqli tasvirini to'g'riligini boshidanoq ishning sifatini belgilaydi. Mobodo ranglarni muvaffaqiyatsiz qo'yilsada, chiziqli tasvir etyudning qimmatini saqlab turadi. Mashhur italyan rassomi Tistian o'zining o'quvchilariga takrorlar ediki: - "... na soya-yorug'lar, na ranglar emas, balki tasvirni to'g'ri chizilgan shakl va chiziqli tasvir go'zal qiladi". Tajribasiz rassomlar ko'pincha boshidanoq qo'pol xatoga yo'l qo'yadilar, osmonni barcha tavsiflari bilan chizib oladilar, so'ng urning tasviriga o'tadilar. Bunday qilish yaramaydi. Manzarada avvalo asosiy ob'ektlarning to'qligi va rangining kuchini tasvirlash: osmon, yer, suv va boshqa va so'ngra bosqichma-bosqich etyudni tugallash holatigacha olib borish zarur. Buyoqlar bilan ishlashdosh avval naturaga ko'zni qisib qarab, naturaning eng yorug' va eng to'q joylarini chamalab olish zarurdir. Aytaylik, eng yorug' blik joy suvning chekka qirg'og'ida, eng to'q joy esa-daraxtning shoxlari deylik. Boshqa barcha to'qliklarni shu ikki bosh nuqtaga nisbatan taqqoslaymiz. Bunday taqqoslashda hatto og'ir qora bulutlar ham to'qligi jihatidan albatta erdagi ob'ektlarga nisbatan engil ekanligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, faqat chuqur fikrlab, predmet va planlarni to'qligi va rangdagi farqlarni aniq tasavvur etib olib, so'ng ishga kirishgan ma'qul. Ish jarayonida manzaraning umumiy to'qligi va rang xolatini hisobga olish zarur. Kunning turli vaqtida va hat xil ob-havoda yozilgan etyudlar umumiy tusi jihatdan turlicha bo'lishi kerak. Shuni yaxshi anglab olishimiz kerakki, predmet va jismlarni ochiq havoda tasvirlashning asosiy o'quv vazifalari turlicha yorug'lik muhitida, umumiy yoritilganligi turlicha bo'lgan, sut-kaning turli vaqtiga, faslga, ob-havoning o'zgarishiga bog'liqdir. Ayniqsa, asosiy yorug'lik manbaiga nisbatan predmet va ob'ektlarning rangli ko'rinishi kuchli ravishda o'zgarib ketadi: ertalab, kunduzi, kechki payt. Masalan, daraxt soyasidagi natura bilan baland devor yonidagi soyadagi naturaning, o'zining soyasining rangiga nisbatan bir xil bo'lmagan rang gammasini tashkil qiladi. Bir xil vaqtda, barchasi yashil soyalanadi, ba'zida osmon ta'sirida ko'kish bo'lishi mumkin. Oldingi daraxtlarning rangi nafaqat

yorqinroq va issiqroq, shu bilan birga uzoqroqdagi daraxtlar tobora xiralashib, sovuq soyalar bo'lib boradi va holangki, yashil-sariq o'rmonzor gori-zontda, ko'k rangdagi chiziqqa aylanadi. Daraxtlarning bunday o'zgarishi ma'lumki, ko'kish rangga ega bo'lgan havoning bizdan uzoqlashgan sayin quyushlab borishi evaziga ro'y beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan havo perspektivasining bunday qonuniyatini har qanday manzarani tasvirlashda qo'llanadi deb o'ylash to'g'ri emas. Yorug'lik holatining ob-havoning shunday vaziyatini uchratish mumkinki, anchayin aniqroq va yorqin ranglar tusi va rangi bilan oldingi planda emas, balki o'rta yoki hatto uzoq planlarda bo'lishi mumkin. Shu o'rinda manzaralarda ko'pincha uchrab turadigan suvni tasvirlash xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz. Tinch ob-havoda suv qirg'oqdagi barcha narsalarni aksidagi ranglarni yorqinligi va mayinligi, suvning ustidagi o'ziga nisbatan sustroq bo'ladi. Aksining rangi suvning rangiga va suv to'lqinlashiga qarab o'zgaradi. To'qroq predmetlar aksida naturadagiga nisbatan yorug'roq, yorug'lari to'qroq ko'rinadi; predmetlarning chegaralari noaniqroq, xiralashadi, detallarning soni ham yuqoridagiga qaraganda kamayib boradi. Suv yuzasi doimo bliklar va tomchilar bilan belgilanadi, shuningdek, suvdan chiqib turgan va unda suzib turgan predmetlar ko'rinadi. Yorug' kunda suv odatda qirg'oqdan yorug'roq bulutla kunda to'qroq bo'ladi. Naturada bir xil bir tekis rang bo'lmaydi, qaysiki matoda bir xil rang bilan qoplab ham bo'lmaydi. Har qaysi rang rangtasvirda o'zining ko'plab rangli jilolarini ko'rsatadi. Osmon bir qarashda to'liq to'q rangda ko'rinadi, lekin, osmonni gorizont bilan bo'lgan qismini boshimiz ustidagi joy bilan taqqoslansa, darhol ranglarning bir xil emasligini payqaymiz. Quyoshning yorug'ida rang anchayin yorqin-jiloli nur tushgan joyda, ufqqa yaqinlashgan sari osmon rangi ochlashadi, issiqlashadi, gorizontni o'zida kuchli tumanda ko'rinadi. Agar yozda yaxshi maysazorga qaralsa, yashil rang turli-tuman tovlanish-larini ko'rish mumkin. Maysalarni bir xil yashil bilan chizib, tasvirlab bo'lmaydi, xuddi osmonni ko'k bo'yoq bilan ishlab bo'lmagani kabi. Biroq, shuni unutmasligik kerakki, manzaraning ranglari qanchalar rang-barang bo'lmasin, yorug'lik nuri, umumiy tus unga ta'sirini o'tkazadi, barcha jismlarda barcha bo'yoqlar unga bo'ysun- diriladi. Naturadan har kuni etyudlar bajarib borish bilan albatta rassom katta zafarlarga erishishi mumkin.

Rasm ishlashda rang va bo'yoqlardan foydalanish

Ma'lumki, tabiat va turmushdagi barcha predmetlar biron-bir yoki bir necha rangga ega bo'ladi. Oddiy bir dona toshda oq, qora, ko'k, yashil va hokazo ranglar bo'ladi. Lekin shunday predmetlar ham borki, ular bir necha ranglar aralashuvida bo'ladi. Lekin biz ularni bir rang nomi bilan ataymiz. Masalan, barg biz uni yashil deymiz, ammo unda yashil, zangor, sariq, oq, qizil kabi ranglar ham bor bo'ladi. Bir tup olma daraxtini tanasi qo'ng'ir, bargi yashil, mevasi sariq, qizil kabi ranglarda qo'rinadi. Biron manzarani kuzatsangiz uzoq-uzoqlardagi toqlar jigarrang, qo'ng'ir, daraxtlar yashil, ko'k, zangor, binafsha, ularni tanalari qo'ng'ir, er jigarrang, texnika vositalari qora, kulrang kabi ranglarda ko'rinadi. Ko'rinib turibtki, tabiat va turmushdagi narsalar rangi turlicha.

Shuningdek, rasm chizish mashg'ulotlaridan oldin rangni ko'rish va uni qanday nom bilan atalishi haqida mashqlar o'tkaziladi. So'ngra ranglarni qo'shish, undan yangi rang topish ranglar o'rmini to'g'ri belgilash mashqlari ham olib boriladi. Bunday ma'lumot va ko'nikmalar egallanilgandan so'nggina yakka-yakka predmetlar rasmini ishlashga kirishiladi. Masalan: olma, anor, nok, barg, shoxcha kabilar rasmini aloqida-alloqida tasvirlash lozim bo'ladi. So'ngra ularni fon asosida biron rangli material ustida tasvirlanishi lozim. Tabiat manzara elementlarini tasvirlash ham foydadan xoli bo'lmaydi. Yakka holdagi terak, chinor, olma, o'rik, tol kabi daraxtlarni yoki qoqi o't, lola, g'o'za kabi o'simliklarni tasvirlash maqsadga muvofiq buladi. Bo'yoq bilan rasm ishlash 4 yoki 5 bosqichda amalga oshiriladi. Ya'ni avval rasmi ishlanadigan narsani chiziqli tasviri qalamda bajariladi, bu 1-bosqich bo'ladi. So'ngra qog'oz qo'llanib, unga fon va predmetning asosiy rangini o'rni topiladi, bu 2-bosqich bo'ladi. Bo'yoq biroz qurigach asosiy ranglar beriladi, bu 3-bosqich bo'ladi, keyingi bosqichlarda yoruq-soyalar, predmetni o'ziga xos xususiyati va xarakterini ifoda etuvchi ranglar beriladi. Shu o'rinda bo'yoq bilan ishlashga xos narsani, ya'ni natura yoki joy-o'rin albatta ko'rish gorizontidan pastda bo'lishi lozim, agar ko'rish nuqtasi natura markaziga tushib qolsa, predmet hajmsiz yassi holda kurinib qoladi, bu rasm chizishni qiyinlashtiradi. Agar qush rasmi ishlansa, uni eng avval ko'rish nuqtasidan pastda va o'ng yoki chap tomonga qo'yilishi lozim. Shundagina qush erda yoki biron butoq ustida o'tirgan holda va gavdasini to'la tasvirlash imkoniyati yaratiladi.

Manzara yoki tematik (syujetli) kompozitsiya ustida ishlash va rasm chizish ham chiziqli tasvir yaratib, uni bo'yoq bilan ishlashga tayyorlanadi (qog'oz xo'llab olinadi), so'ngra asosiy ranglar) ni o'rni topiladi. Keyingi bosqichlarda asosiy ranglar, yorug'-soyalar ishlanadi.

Bunday rasmlar ham 4-5 bosqichda ishlanadi. Rasmga e'tibor bering, undagi bosqichlarni har biri o'zidan keyingi bosqichga qulaylik yaratadi yoki har bir keyingi bosqich o'zidan oldingi bosqichni to'ldirayotganini ko'rasiz.

Syujetli tematik rasm ishlash asosan ko'rgan bilgan voqea hodisalar, o'qigan kitoblar va tevarak-atrofdagi turmush va hayot hodisalari asosida rasm ishlashdan iborat bo'ladi. Bunday rasm ishlash bo'lajak pedagog - tarbiyachilarni mustaqil ijodiy rasm ishlashga va bolalarga ijodiy rasm ishlashlarini o'rganishga yo'l-yo'riklar beradi.

Tarbiyachi-pedagog rasm ishlashni, mustaqil kompozitsiya tuzishni juda yaxshi bilishi kerak. Bunday rasm ishlashni eng oson yo'li o'qituvchi tomonidan sinf doskasida ko'rsatib bergan syujet elementlaridan foydalanilgan holda rasm ishlashdir. Chunki, o'qituvchi har bir tematik rasm chizish darsida, shu mavzu bo'yicha bir necha elementlar ko'rsatadi. Talabalar undan ijodiy foydalanib, mustaqil tematik kompozitsiya tuzadilar.

Bo'yoq bilan ishlashni o'rganishni eng oson yo'llaridan yana biri bo'yoqda badiiy bezash bo'yicha rang ishlashdir. Chunki, tasviriy san'atni bu bo'limi ko'proq naqsh va mustaqil rang kompozitsiyasidagè bezatish ishlaridan (devoriy gazeta, otkritka kabilar) iborat bo'ladi. Bunda har bir element bir xildagi rangni talab qiladi. Naqsh chizishda esa har bir bo'yok o'rni belgilab olinadi va bu o'ringa shu bo'yokni o'zi tiniq holda beriladi.

O't-o'lanlar va daraxtlar rasmini chizish.

O't-o'lanlarni asosan barg, novda-shoxchalar tashkil etadi. Shuning uchun eng avval barg va novdalar rasmini chizish mashqlarini egallashimiz kerak. Buning uchun biron o'simlik yoki daraxt novdasini olib, uni avval bargini, so'ngra novda-shoxchasini rasmini chizishni mashq qilindi. Bu erda barglarning bir-biridan farqi, ularni novdaga qay holda (paralel yoki ketma-ket) joylanishiga asosiy e'tibor beriladi. Barg, shoxcha, o'simlik va daraxtlar rasmini chizish bo'yicha unda avval umumiy holda, so'ngra ularni har birini etaplar bo'yicha chizish ko'rsatilgan. chiqarilaboshlandi. 8-asrdan boshlab qator Osiyo mamlakatlarida, 10-asrdan Evropada va Rossiyada qog'oz ishlab chiqarish boshlandi. 17-18 asrlarda Gollandiyada qog'ozni mashinalarda ishlab chiqarish boshlandi. Hozirgi kunda jaqonda qog'ozning 600 dan ortiq turini ishlab chiqariladi. Qog'oz o'zining chidamliligiga ko'ra yog'och, shisha va ayrim nemetall materiallar bilan rakobatlashmoqda. Ammo qog'oz yozuv-chizuv san'ati va faoliyatining asosiy materiali bo'lgan holda, uning oq, pushti, ko'k, havorang, qizil, sariq ranglarda kuprok ishlab chiqariladi.

Ishlar ikki o'lchovda (eni va uzunligi bo'yicha) tayyorlanib, uning shu o'lchamlari bo'yicha formatlari belgilanadi. Rasm va chizmalar chizish uchun qo'llaniladigan qog'ozlar P-formatdan (o'lchami 297x210 mm.) boshlanib, 12- (o'lchami 297x420 mm.), 22- (o'lchami 594x420 mm.), 24- (o'lchami 594x841 mm.) xolstga tanlanadi. Masalan: "O'lkamizda bahor" temasida rasm chiziladigan bo'lsa, dars mashg'ulotida o'qituvchi tuziladigan kompozitsiya bo'yicha suhbat o'tkazadi. Bu suhbatda bahor fasli haqida umumiy ma'lumot beradi. O'quvchilar bahor fasli haqidagi ma'lumotlar asosida xomaki rasmlar chizadilar. So'ngra bahor fasli haqida o'zlari xoxlagan mavzu va syujent bo'yicha "O'lkamizda bahor", "Shaftoli gulladi", "O'rik gulladi", "hovlimizda bahor", "Tog'da bahor", "Bahorgi ishlar" kabi temalarda rasm chizadilar. O'qituvchi bolalarni yanada qiziqtirish uchun baxor faslini asosiy elementlaridan namunalar ko'rsatadi. Bahor faslida erta amalga kiradigan daraxtlar vao'simliklar, ularningshoxchalari.



4-rasm Daraxt tasvirlash namunasi

2.6. Ijodiy manzaralar chizish

Manzara janrida ishlashni ko'pincha oddiygina ommabop ish deb hisoblaydilar, rassomdan kuchli malaka talab etmaydigan ish deb noto'g'ri fikrlaydilar. Vaholangki, aslida manzara rangtasvirida chuqur obrazli ko'rinish yaratish bu oson emas. Rassomga u chuqur ijodiy qoniqish xosil qiluvchi hissi yot beruvchi vositadir. Manzara kompozitsiyasi ustida ishlash eng qiziqarli e'tibor tortuvchi motiv tanlashdan boshlanadi. Bu ma'noda esa eng avvalo etyudlar bajarishda yoki manzara materiali ustida ishlaganda asosiy vazifalarni belgilab olish ham muhimdir. So'zsiz etyud yozish manzara kartinasi ustida ishlashga nisbatan albatta engilroqdir. Biroq etyudga nisbatan ham ancha jiddiy munosabatda bo'lib, tevarak-atrof muhit haqida tasavvurlarini kengaytirish va unga kasbiy mahoratni oshirish, mukammallashtirish vositasi sifatida qarash kerak. Mashhur manzarachi rassomlarning ijodi bizni yangi motivlari bilan o'ziga tortadi. Unda tomoshabin usta shaxsining aksini ilg'ab oladi, uning individual (pocherki) chizgisi, bu bilan u o'zini hissiyoti, kayfiyati estetik g'alayonlarning, tabiatning ta'sirida go'zallik ta'sirida ko'radi. Mashhur manzarachi rassomlarning barcha jihatlarini o'zlashtirish ularga to'liq bog'lanib qolish, taqlid qilish, begona kompozitsiyalarga suyanib qolish yaramaydi. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish ko'nikmasi, yangilikni idrok etish bizning davrimizga xos xarakterni topish fazilatini ko'plab rassomlar ijodida ko'rish mumkin. Ayrim yosh rassomlar kompozitsiyadagi chiziqli echimni o'rniga to'liq baho bermaydilar, ular asosiy narsa rangtasvirida bu kolorni deb hisoblaydilar. Bu noto'g'ri. Manzara rangtasvirida teppa teng- chiziqli echim, rangtasvir va kompozitsiya zarur hisoblanadi. Naturadagi eng qiziqarli motiv topib olingandan so'nggina kompozitsion izlanishlar boshlanadi. Etyudni o'lchami, formati aniqlanadi. Odatda tajribali rassomlar tayyorlab olingan formatdagi xolatda ishlash vazifasini qo'yadilar. Bu holatda chizuvchining atrofida bor bo'lgan tabiat ko'rinishi motivini joylashtirishga to'g'ri keladi. Boshqa rassomlar esa fikriy-g'oyaviy

izlanishlar olib boradi, tabiatni kuzatar ekan, ko'rish nuqtasini o'zgartiradi. Bunda ramka-kuzatkichdan foydalaniladi. U zaruriy (gorizontal, vertikal yoki yaqin kvadratga) format topishga yordam beruvchi. Shunga qarab material asos (xolet, qog'oz yoki karton), odatda, bu etyudga chiqishdan avval tayyorlab olinadi. Yana shuni ham aytish mumkinki, yordamchi vositalarisiz ham, ko'z chamasi bilan zaruriy manzarani qismini tanlab olish mumkin. Etyud ishlash jarayonida tanlangan motivning kompozistiyasi, uning tonal va kolorit echimi, naturadan chizilgan tasvir bilan taqqoslaniladi va bu holda ayrim kamchiliklar chiziqli tasvirda, koloritda, kontrast va tongdagi kuchi, qaysiki oxirida manzaraning ifodaviyligi hal qiladi. Manzara kartina yaratish mo'ljallanar ekan naturadan chizish bilan rangtasvirchining kuzatganlari va taassurotlari aks etadi. Ko'p manzarachilar shunday ishlaydilar. Ba'zi bir rassomlargina ularga ma'lum bo'lgan xayoliy taassurotlar va rang bilan ishlaydilar. Naturadan ishlash kartina ustida xiyla og'ir jaryon hisoblanadi, bajarilgan etyud esa kartina uchun yordamchi material

bo'lib xizmat qiladi. Kartina ustida ishlash jarayonida kartinaning chiziqli echimi, tus va rangdagi eskiz bajariladi. Rassom yana va takror naturaga murojaat etadi, unda qo'shimcha tabiatning obrazlilikini boyituvchi xarakterli shtrixlar topadi. Zamonaviy manzarada esa inson faoliyatining natijalarini ifodalash mumkin. Qaysiki kompozistiyaga odam tasvirlarini (figurasini) kiritish bilan manzara kartina kompozistiyasi ustida ishlash shu darajagacha davom etadiki, qaysiki chiziqli kompozistiya naturan olingan etyud yoki xomaki rasm asosida tusli va rangli echimini topgunga qadar. Bu vaziyatda tugal holda shunday aniq vazifalar bajariladiki, qaysiki har holda qisman bo'lsa-da birinchi kompozistion eskizlarda echib borilgandagi asoslanib. Bu bilan faol holda, barcha asosli materiallar kompozistiyaga va chiziqli rasmga va rangli qurilishiga tuziladi. Ish jarayonida albatta kontrvallar va yaxlitlik qonuniga amal qilinishini hisobga olish kerak. Alohida unutmaslik kerakki, tus va rang kontrastlari, shakl va o'lcham va boshqa elementlardagi kontrastlar ham tasviriy motivga kiruvchi. Kartina ustida ishni tugallash bosqichida rassom alohida vazifalarni bajarishga ya'ni qiziqib ketishi mumkin. Alohida detallarning tus va tonal munosabatlarni berishda bu esa kompozistiyani ko'pol va quruq bo'lib qolishiga, kayfiyatni o'zgarib ketishiga olib keladi. Shu bois kompozistiyaga yaxlitlik qonuni prizmasi orqali qarash va kompozistiyaning bo'laklarga ajralib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

